ДАТЧИКИ ИНТЕРНЕТА ВЕЩЕЙ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДЛЯ МОНИТОРИНГА ТЕПЛИЧНЫХ КОМПЛЕКСОВ	878
Самадов Эльёр Эркинович	
МЕТОДЫ ОПТИМИЗАЦИИ РАБОТЫ ЭКСКАВАТОРНО-АВТОМОБИЛЬНОГО КОМПЛЕКСА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ НА ОТКРЫТЫХ ГОРНЫХ РАБОТАХ	884
Аннакулов Тулкин Жовбекович, Норимонов Шамсиддин Нураддинович	
ПРОГНОЗИРУЮЩЕЕ УПРАВЛЕНИЕ СЛОЖНЫМИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ И ПРОИЗВОДСТВАМИ НА ОСНОВЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ	892
Гулямов Шухрат Манапович	



OLIY TA'LIM TASHKILOTI SUBYEKTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI BO'YICHA XARAJATLAR HISOBINI YURITISH	896
<i>Xonimqulov Islom Ergash o'g'li</i>	
XIZMAT KO'RSATUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA MODDIY-TEXNIKA RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	901
<i>Kamoliddinov Ilxomjon Muxammadjonovich</i>	
THE HIDE AND SHADOW ECONOMY IN UZBEKISTAN	905
<i>Koshanov Abdimurat Azat uli, Abdimuratova Altingul Kalbayevna</i>	
SHAHAR AGLOMERATSIYALARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH.....	910
<i>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</i>	
MOL-MULK SOLIG'I HISOB VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	914
<i>Sh.M.Ergashev</i>	
HUDUDLARDA QURILISH OBYEKTLARINI QURILISH MATERIALLARI BILAN TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	918
<i>Najimov Iskander Perdebayevich</i>	
TOVAR MODDIY ZAXIRALAR AUDITIDA TAHLILY AMALLARNI O'TKAZISH VA ULARNING BOSQICHLARI.....	922
<i>Tajekeev Ziyatdin Kobeytinovich</i>	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ЗАТРАТАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	927
<i>Минутдинова Лилия Тагировна</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ ОСВЕЩЕНИЯ САЛОНОВ ВАГОНОВ МЕТРОПОЛИТЕНА ПУТЕМ ЗАМЕНЫ ЛАМП НАКАЛИВАНИЯ ЛБ-40 (ЛБ-36) НА СВЕТОДИОДНЫЕ LED-ЛАМПЫ	934
<i>Файзуллаев Асомитдин Аловитдинович, Нематов Эркин Хамраевич, Пирназаров Шохрух Холмурод угли</i>	
HUDUDY BARQAROR O'SISHDA INKLYUZIV IQTISODIY MEKANIZMLARNING ROLI	939
<i>Xamroqulov M.J.</i>	
UZBEKISTAN'S HIGHER EDUCATION SYSTEM STRENGTHENS ITS POSITION ON THE INTERNATIONAL STAGE.....	944
<i>Umarov Diyor Ravshanovich</i>	
YANGI TAKOMILLASHTIRILGAN PAXTA SEPARATORINI KORXONADA SINOV JARAYONIDAN O'TKAZISH.....	949
<i>Raximov Akbar Xolmurodovich</i>	
KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING OSIYO DAVLATLARI TAJRIBALARI: TAHLILY YONDASHUV	953
<i>Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich</i>	
КИНЕТИЧЕСКАЯ АРХИТЕКТУРА НА ПРИМЕРЕ ДИНАМИЧЕСКИХ ФАСАДОВ	958
<i>Хаитов Суннатжон Истамович</i>	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AMALIY IMKONIYATLARI.....	963
<i>Ibragimova Shahlo Alimbayevna</i>	
ЗАКОНОМЕРНОСТИ ДЕСУЛЬФУРАЦИИ МЕТАЛЛА ШВА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СОСТАВА ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ФЛЮСОВ	969
<i>Абралов Музаффар Махмудович</i>	
РОЛЬ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ИННОВАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ	975
<i>Бахрамов Зиядулла Баходирходжаевич</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	979
<i>Yuldasheva Mexrunisa Qasimjan qizi</i>	
OLIY TA'LIM SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTSIONAL VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	984
<i>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</i>	



XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARI BO'YICHA INTERAKTIV MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH ORQALI BUDJET XARAJATLARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	989
Dilshod Pulatov, Gulzara Kaxxarova	
TEMIR YO'L TRANSPORTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	994
Raximov Xasan Shukurjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	1000
Yuldashev Doniyor Tairovich	
PENSIYA JAMG'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO'YICHA HISOBOTI TAHLILI	1005
Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich, Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1011
Axmedova Xumora Ibroxim qizi	
ELEKTR MARKAZLASHTIRISH TIZIMIDAGI BOSHQARISH VA NAZORAT RELELI BLOKINI (P62) ZAMONAVIY, KONTAKTSIZ ELEMENTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH	1015
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
KLASTERLAR FAOLIYATIDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASHI VA INVESTORLAR ROLI	1026
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ НА БАЗЕ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1030
Садыков Жахонгир Насырджанович	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QURILISH SANOATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGI	1039
Boltayev Umidjon Talant o'g'li	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФРАКРАСНЫХ ДАТЧИКОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОНТРОЛЕ КАЧЕСТВА ЗЕРНОВЫХ ПРОДУКТОВ	1044
Мухамедханов Улугбек Тургудович	
MINTAQA IQTISODIYOTINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1049
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA ASOSIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISH	1054
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ПРОЦЕССАМИ РАЗДЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ БАЗ ЗНАНИЙ И ЦИФРОВЫХ МОДЕЛЕЙ	1059
Абдуллева Камола Рустамовна	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	1065
A.Xakimov, X.Xakimov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	1073
Касымова Нозима Омиловна	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIY TAJRIBASI	1077
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1082
Saidova Sevara Abdimumin qizi	
TIBBIYOT XODIMLARI MEHNAT FAOLLIGINI RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY JIHATLARI.....	1089
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
RAQAMLASHTIRISH — ILM-FAN INTEGRATSIYASI, INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR VA SANOAT RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI.....	1094
Umurzak Ablakulovich Radjabov	
FUQAROLIK JURNALISTIKASIDA GENDER MUVOZANATI: ILMIY YONDASHUVLAR TADRIJI	1101
Zakirova Oisha Vohid qizi	
AGLOMERATSIYA BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAQATLAR TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	1109
Mardonov Shohruh Shuhrat o‘g‘li	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA LOGISTIK JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH VA TA‘MINOT ZANJIRLARINI BOSHQARISH.....	1114
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH BO‘YICHA DAVLAT DASTURLARI BAJARILISHIDA DAVLAT–XUSUSIY SHERIKCHILIKDAN FOYDALANISH	1122
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ СЕТЕВОГО ТРАФИКА НА КАЧЕСТВО ОБСЛУЖИВАНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ СЕТЯХ: ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	1127
Усманова Наргиза Бахтиёрбековна, Саиткамолова Гузаль Камильжон кизи	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA ORGANIK MAHSULOT ISHLAB CHIQARISHNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.....	1141
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
MAHALLIY BUDJET IJROSINI TA‘MINLASHDA G‘AZNACHILIK TIZIMINING INSTITUTSIONAL ROLI VA SAMARADORLIGI	1145
Tangriyeva Farida Abdulkarimovna	
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MEXANIKA MUHANDISLIGI TERMINLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	1150
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
BUDJET SIYOSATI VA DAVLAT MOLIIYASI BARQARORLIGI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	1154
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
RESTORAN XIZMATLARI SOHASIDA REJALASHTIRILGAN ISTE‘MOL XULQ-ATVORI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	1159
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	



UO'K: 339.13

RESTORAN XIZMATLARI SOHASIDA REJALASHTIRILGAN ISTE'MOL XULQ-ATVORI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

**Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov**

Ma'mun universiteti dotsenti, PhD.

ORCID: 0000-0001-6554-2087

email: kamail_uz@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada restoran xizmatlari sohasida mijozning xarid tanlovi postindustrial tendensiyalarga monand ravishda "tajriba", "imidj", "nufuz" va "o'z-o'zini namoyon etish" nuqtayi nazaridan kengaytirilgan ehtiyojlarni qondirish vositasiga aylanganligi, bu yo'nalishda xarid tanlovi, motivi, iste'mol taomillarining rejalashtirilgan xulq-atvorning psixologik mexanizmlariga asoslanishi tadqiq qilingan. A. Maslouning kengaytirilgan ehtiyojlar nazariyasi va rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasining uyg'unlashuvi asosida restoran xizmatlari ko'rsatishda mijozning iste'mol niyatini o'z vaqtida anglash va prognozlashning ahamiyatli jihatlari, iste'mol niyati hissiy va kognitiv kechinmalar, ijtimoiy norma va ta'qiqlar hamda prototiplarga asoslangan holda shakllanishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: SERVQUAL, hissiy va kognitiv kechinmalar, ijtimoiy norma, ijtimoiy ta'qiqlar, prototiplar, "ideal mijoz portreti".

Abstract. The article examines the transformation of the consumer's purchasing orientation in the sphere of restaurant services into a means of satisfying expanded needs from the point of view of "experience", "image", "prestige" and "self-expression" in accordance with post-industrial trends, based on the psychological mechanisms of planned behavior of purchasing choices, motives, and consumer practices in this direction. Based on the combination of A.Maslow's theory of expanded needs and the theory of planned behavior, important aspects of timely awareness and forecasting of the client's consumer intention in the provision of restaurant services are revealed, the formation of consumer intention based on emotional and cognitive experiences, social norms and prohibitions, and prototypes.

Keywords: SERVQUAL, emotional and cognitive experiences, social norm, social behavior control, prototypes, "ideal client".

Аннотация. В статье исследуется, потребительский выбор клиента в сфере ресторанных услуг соответствии с постиндустриальными тенденциями трансформируется в средство удовлетворения расширенных потребностей — «опыта», «имиджа», «престижа» и «самовыражения». В данном контексте показано, что потребительский выбор, мотивы и модели потребления основываются на психологических механизмах теории запланированного поведения. На основе интеграции расширенной теории потребностей А.Маслоу и теории запланированного поведения раскрываются ключевые аспекты своевременного понимания и прогнозирования потребительских намерений клиентов в сфере ресторанных услуг. Установлено, что формирование потребительского намерения опирается на эмоциональные и когнитивные переживания, социальные нормы и запреты, а также на прототипы.

Ключевые слова: SERVQUAL, эмоциональные и когнитивные переживания, социальные нормы, социальные запреты, прототипы, «портрет идеального клиента».



KIRISH

Zamonaviy mijozning iste'mol haqidagi qarori nafaqat funksional ehtiyojlar, balki hissiy tajriba, ijtimoiy me'yorlar, imij va o'z-o'zini namoyon etish omillari ta'sirida shakllanadi. Mijozlarning xarid to'g'risidagi qaror qabul qilish jarayonini o'rganish jarayonida marketing amaliyoti asosiy diqqat-e'tiborni tovarning dizayni va tashqi qiyofasini yaxshilashga, bozorni segmentlashning iqtisodiy-demografik belgilariga asosiy urg'u qaratadi. Restoranolarda mijozning iste'mol niyatini belgilaydigan kognitiv va emotsional mexanizmlarni tahlil qilish, o'z navbatida, restoran xizmatlarida raqobatbardoshlikni oshirish, mijoz ehtiyojlarini oldindan aniqlash va xizmat sifatini takomillashtirish imkonini beradi. Milliy restoranlarda ham mijozning rejalashtirilgan xulq-atvorini tadqiq qilish bozor imkoniyatlarini topishga va har bir segment uchun kerakli mahsulot yoki xizmatlarni taklif qilishda, maqsadli iste'molchiga to'g'ri e'tibor qaratish hamda mijozlarni topish, jalb qilish va ushlab turish xarajatlarini optimal taqsimlashda o'z samarasini beradi. Shu jihatdan, restoran xizmatlari ko'rsatishda mijozlarning xarid ishtiyoqini va takroriy tashrifini, barobarida ularning xarid niyatini ham rag'batlantirish dolzarb hisoblanadi.

MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijlik olimlardan Ajzen va Fishbein [1] ishlarida iste'mol qarorlarini tushuntirishda kognitiv omillarning ustuvorligi, ijtimoiy bosim va shaxsiy ishonchlar inson tanlovini shakllantirishda muhim o'rin tutishi, xarid tanlovining iste'molchilarning brend tanlovi, xizmatdan qoniqish va qayta xarid niyatiga bog'liqlik jihatlari Schiffman va Wisenblit [2] tomonidan o'rganilgan. RF olimlaridan A.N. Leontev [3] iste'molchining xarid xulq-atvorini motiv va maqsadlarga bog'liq shakllanishini, Ye.P. Ilin [4] tadqiqotlarida motivatsiya, ehtiyoj va qaror qabul qilish psixologiyasi iste'mol niyatini kuchaytirishi yoki susaytirishini asoslab berilgan.

O'zbekistonlik olimlardan Sh.R. Xolmo'minov ishlarida xizmatlar sohasida iste'molchi qoniqishi va tanloviga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarning iste'mol niyatini oldindan bashorat qilishga ta'siri [5], shuningdek, muallifning ilmiy tadqiqotlarida ham mijoz xulq-atvorini shakllantirishda ijtimoiy me'yorlar, ishonch va qadriyatlar roli, zamonaviy xizmatlar sohasida mijoz tajribasi, iste'mol taomillarining o'zgarishi sharoitida restoranlarda rejalashtirilgan iste'mol qarorlarining ahamiyati ochib berilgan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya, guruhlash, mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarini umumiy, yaxlit tarzda ifodalash maqsadida jadval va rasmlardan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Iste'mol niyati, shuningdek, xarid niyati iste'molchining kelajakda mahsulot yoki xizmatni xarid qilishi, iste'mol qilishini bildirishi yoki psixologik jihatdan idrok etilgan moyilligi va tayyorligini anglatadi. Iste'mol niyati mijozning xarid xulq-atvorini o'rganishda ma'lum bir mahsulotni sotib olishi yoki xarid bitimi tuzish ehtimolini baholash va bashorat qilishning psixologik tizimidir. Iste'mol yoki xarid niyati haqiqiy xarid xulq-atvorining ilk "darakchi"si hisoblanadi. Barchamizda mahsulotni xarid qilish yoki iste'mol qilish niyati bo'lishi mumkin, ammo narx, ushbu mahsulotning mavjud yoki mavjud emasligi, raqobatchilarning takliflari va vaqt omillari ta'sirida niyatning haqiqiy xaridga aylanishi ro'y beradi. Restoran xizmatlari ko'rsatishda mijozning iste'mol niyatini o'z vaqtida anglash va prognozlash biznes muvaffaqiyati uchun juda muhim hisoblanadi, chunki u mijozning iste'mol taomillarini, qadriyatlarini, taom va xizmatlarning afzalliklarini, talabi haqida ishonchli dalillarni shakllantiradi. Shu boisdan ham restoranlarda mijozning xarid tanloviga ta'sir ko'rsatishda turli xil marketing strategiyalaridan, jumladan reklama va targ'ibotdan foydalanish, ularni rivojlantirishda esa shaxsiylashtirilgan takliflardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xizmatlar sohasi rivojlanishining postindustrial tendensiyalari iste'molchilarning ovqatlanish bilan bog'liq iste'mol taomillari yoki xulq-atvoridagi o'zgarishlarni ham qamrab olganligini alohida ta'kidlashimiz kerak. Chunki iste'molchilarning utilitar ehtiyojlari qondirilishi bilan ularning xarid to'g'risidagi qarori muvozanatlashgan holda oldindan o'ylangan xatti-harakatlarni, shuningdek, beixtiyor yoki reaktiv qaror qabul qilish jarayonlari tufayli shakllangan ustanovkalar asosida shakllanadigan xatti-harakatlarni ham hisobga olishini e'tiborga olishimiz lozim. Buni quyidagilar orqali izohlashimiz mumkin.


Birinchidan, xarid to'g'risidagi qaror qabul qilishning xulq-atvor yondashuvlari, shuningdek, rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi kishilar o'rtasidagi affektiv va kognitiv munosabatlarga hamda ijtimoiy me'yorlarning xususiyatlariga ko'p jihatdan bog'liq hisoblanadi. "...rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi konseptual jihatdan xarid to'g'risidagi qarorni qabul qilishning ijtimoiy-psixologik va demografik jabhalariga uyg'unlashgan bo'lsa-da, restoran xizmatlari ko'rsatish ovqatlanish maqsadida tasodifan tanlanadigan obyekt xarakteriga ega emasligiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim" [7]. Bu jihat iste'molchining individual xohish-istagi va niyatiga, shuningdek,



xohishning ataylab ovqatlanish jarayonida qo'shimcha ravishda xordiq chiqarish kabi xizmatlarni, menyuning noyob elementlarini tanlashga yo'naltirilganligiga bog'liq holda xarid jarayonining oldindan rejalashtirilganligini, aytaylik, iste'mol taomili ham shunga mos holda ataylab moslashtirilganligini ko'rsatib turibdi. Boshqacha qilib aytganda, iste'molchilar restoran menyusini nafaqat ongli ravishda, balki vaziyat omillariga, masalan, yaqinlarning tavsiyasiga javoban tanlashlari ham mumkin.

Ikkinchidan, iste'molchilarning kengaytirilgan ehtiyojlarini qondirish jarayoni turli vaziyat omillarini, masalan, o'ta to'yimli ovqatlarni iste'mol qilish, xordiq chiqarish maqsadlarida qo'shimcha buyurtma berish orqali turli ko'ngilochar tadbirlarni ham tanlashni, ekomahsulotlarni, hattoki spirtli ichimliklar kabi nosog'lom menyu bandlarini tanlashni ham o'z ichiga oladi. Mazkur xususiyatdagi xarid tanlovi iste'molchilarning xarid niyatiga oldindan yetarlicha tayyorgarlik ko'rganligini, vaziyatni oldindan bashorat qilish mumkinligini anglatadi.

Uchinchidan, xarid tanlovini shakllantirishda impulsiv qarorlar muhim rol o'ynaydi va xarid qarorini qabul qilishda reflektiv bo'lmagan jarayonlarning ham ahamiyati juda beqiyos hisoblanadi. Mijozning meva va sabzavotlarni iste'mol qilishi, turli ichimliklarga qo'shimcha buyurtma berishi iste'mol taomilining puxta tayyorgarlik ko'rilganligini, impulsivlik hamda vaziyat omillariga reaktiv javob mavjudligini anglatadi (1-rasm).



1-rasm. Iste'molchilarning kengaytirilgan ehtiyojlarini qondirish jarayonida rejalashtirilgan iste'mol xulq-atvorining shakllanishi

Hissiy va kognitiv kechinmalar. Hissiy va kognitiv munosabatlar mijoz xarid niyatlarining muhim indikator bo'lsa-da, hissiy munosabatlarning ta'siri yuqoriroq hisoblanadi. Mijozning restoranda "...meva va sabzavotlarni iste'mol qilishi, to'yimli va sog'lom ovqatlanish zahirida xos 'sog'lom' menyusi mavjuddir" [8]. Aynan shu jihatdan restoranlarda mijozlarning his-tuyg'ulariga ta'sir qiladigan xabarlar yoki reklamalar samarasi sog'lom menyu elementlarini iste'mol qilishning haqiqiy afzalligini targ'ib qilishga qaratilganidan ko'ra samaraliroq bo'ladi.

Ijtimoiy norma va ta'qiqilar. Jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy normalar, xususan, taqiqlovchi me'yorlar mijozlarning restoranlarda menyuni tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki ular xulq-atvor niyatlariga ham, xohish-istaklarga ham yanada kuchli, sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, iste'molchilar ijtimoiy kutilmalar va o'z xatti-harakatlarining ijtimoiy oqibatlari haqidagi xavotirlari yoki kutilayotgan "afsuslanish"ning oldini olish maqsadida ham harakat qilishlari mumkin. Shu sababli restoran xizmatlari ko'rsatishda marketing tadbirlari va targ'ibotlar ijtimoiy me'yorlar haqidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga olishi lozim. Masalan, turli ko'ngilochar tadbirlar va targ'ibotlar sog'lom ovqatlanishni, milliy taomlar tayyorlash texnologiyasini, ovqatlanish madaniyatining jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy me'yor va ta'qiq ekanligini ma'lum darajada o'z ichiga olishi lozim.

Prototiplar. Rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi, o'rganilgan iqtisodiy adabiyotlar hamda bizning natijalarimiz [9, 10] shuni ko'rsatadiki, iste'molchilarning restoranlarga takroriy tashrif buyurishi o'zlariga

eng katta foyda keltiruvchi (sifat, narx, vaqt) tanlovga, servis muhiti va sifati (SERVQUAL)ga, shuningdek ovqatlanuvchilar haqidagi ijobiy prototip tasavvurlarga ham bog'liq. Odatda mijozlar tejamkor restoran menyusi asosida taom iste'mol qilishga ko'proq tayyor bo'ladilar, biroq xordiq chiqarish nuqtayi nazaridan qo'shimcha buyurtma berish negizida nafilikni oshirishga bo'lgan ehtiyojlar mijozlarning "tejamkor" ovqatlanish xatti-harakatlarini o'z "... 'prototip'"larini yaratish orqali beixtiyor yoki reaktiv qaror qabul qilish yondashuvlariga asoslanishini va o'rtacha chek miqdorini keskin oshirish "muhimligi"ni o'zaro qo'llab-quvvatlashini ko'rsatadi" [11]. Shuningdek, jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy me'yorlar iste'molchilarning taom iste'molidagi isrofgarchilik va ichkilikbozlik xulq-atvoriga ham ta'sir qilishi, sog'liq uchun xavfli iste'mol va xatti-harakatlarning aksariyati, masalan, ichkilikbozlik, xavf tug'diradigan ijtimoiy vaziyatlar (masalan, ziyofatlar, ommaviy madaniyat, azart o'yinlar) salbiy ijtimoiy reaksiya sifatida qaralishi iste'mol taomillarini keskin o'zgartirishi mumkin. Bunday vaziyatlarda mijoz o'z prototip modelini yaratishga, prototip tasavvuridagi idrok va iste'mol niyatlarini shakllantirishga harakat qiladi. Ushbu vaziyatda restoranlar mijozlar tomonidan o'zlarini ishbilarmon yoki ichkilikbozlik prototipiga moslashtirilgan tarzda meniylarni ishlab chiqish orqali iste'mol niyatlarining kuchliroq namoyon bo'lishiga turtki beradi" [12].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Restoran xizmatlari ko'rsatishda mijozning xarid tanlovi ko'p jihatdan rejalashtirilgan xulq-atvor tamoyillariga asoslanadi.

- Restoranolarda menyu tarkibi mijozning taom va ichimliklar iste'moli niyatining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- Restoranning va ularda tayyorlanadigan taom va ichimliklarning xususiyati bo'yicha tavsifiy me'yorlar (porsiya, eng kam yoki ko'p miqdori, joy va o'rinlar soni) mijozning ovqatlanish niyatini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- Restoranolarda ovqatlanish bo'yicha belgilangan ta'qiqlar yoki xulq-atvor nazorati sog'lom ovqatlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- Har bir restoran iste'molchilar uchun umumlashgan "ideal mijoz portreti" yoki prototipga moslashtirilgan meniylarni ishlab chiqish orqali iste'mol niyatlarining kuchliroq namoyon bo'lishiga turtki beradi.

- Nufuzli restoranlarning ovqatlanish barobarida xordiq chiqarishga ham yo'naltirilganligi mijozning qo'shimcha buyurtma berish negizida nafilikni oshirishga bo'lgan xatti-harakatlarini o'z "prototip"larini yaratish orqali beixtiyor yoki reaktiv qaror qabul qilish yondashuvlariga asoslanishini va o'rtacha chek miqdorini keskin oshirish "muhimligi"ni rag'batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Icek Ajzen, The theory of planned behavior, Organizational Behavior and Human Decision Processes, Volume 50, Issue 2, 1991, Pages 179-211, ISSN 0749-5978, [https://doi.org/10.1016/0749-5978\(91\)90020-T](https://doi.org/10.1016/0749-5978(91)90020-T); Ajzen, I., & Fishbein, M. (1975). A Bayesian analysis of attribution processes. Psychological Bulletin, 82(2), 261–277. <https://doi.org/10.1037/h0076477>
2. Aldarraj, Isam & Alramdhan, Salam. (2021). Consumer Behavior G. Schiffman, Joseph Wisenblit 11th Edition Pearson 2014 Chapter 14 questions answers :
3. Леонтьев, А.Н. Деятельность. Сознание. Личность: учебное пособие /А.Н.Леонтьев. – 2-е издание, стереотипное. – Москва : Смысл : Академия, 2005. – 352 с.
4. Ильин, в.И. Поведение потребителей / в.И. Ильин. – м., 2002. – 119 с.
5. Sh.R.Xolmo'minov, N.U. Arabov. "Mehnat bozori infratuzilmasi". // Fan va texnologiyalar. – 2016 – 332.
6. Ibodov K.M. Restoran ishida marketing. Darslik. Toshkent: - T.: "Fan va texnologiya" 2021, 460 bet.
7. Jang, Yoon Jung (2022). Understanding restaurant customers' environmental behavior in the social media context: An application of theory of planned behavior, Global Business & Finance Review (GBFR), ISSN 2384-1648, People & Global Business Association (P&GBA), Seoul, Vol. 27, Iss. 2, pp. 48-60, <https://doi.org/10.17549/gbfr.2022.27.2.48>
8. Gibbons, F. X., Gerrard, M., & Lane, D. J. (2003). A social reaction model of adolescent health risk. In J. Suls & A. Kenneth (Eds.), Social psychological foundations of health and illness (pp. 107–136). Oxford: Blackwell
9. Ибодов, К. (2024). Истеъмол таомиллари ўзгариши муҳитида ресторан хизматлари истеъмол қимматдорлигини тадқиқ этиш. Economics and Innovative Technologies, 11(4), 407–414. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss4/a42.
10. Ибодов, К. (2024). Истеъмолчи ресурслари – ресторан хизматлари истеъмол қимматдорлигини белгиловчи омил сифатида. Economics and Innovative Technologies, 12(1), 230-236. https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss1/i26
11. Gerrard, M., Gibbons, F.X., Reis-Bergan, M., Trudeau, L., Vande Lune, L.S., Buunk, B., 2002. Inhibitory effects of drinker and nondrinker prototypes on adolescent alcohol consumption. Health Psychol. 21, 601–609.
12. Norman P, Armitage CJ, Quigley C. The theory of planned behavior and binge drinking: assessing the impact of binge drinker prototypes. Addict Behav. 2007 Sep;32(9):1753-68. doi: 10.1016/j.addbeh.2006.12.009. Epub 2006 Dec 19. PMID: 17270356.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100